

1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(4-hafta)



1-keys. “Kelajak shahri”



Vaziyat:

Jasurbek televizorda baland va zamonaviy binolar, keng yo‘llar hamda chiroyli parklarni ko‘rib, otasidan: “Bizning shahrimiz ham kelajakda shunday bo‘ladimi?” deb so‘radi.



Savollar:

Siz 10 yildan keyingi O‘zbekistonni va shahringizni qanday tasavvur qilasiz?

1

2

Shaharlarimiz obod bo‘lishida kimlarning mehnati bor?

3

Maktab va ko‘chalarimiz ozoda bo‘lishi uchun bolalar nima qilishi kerak?



Topshiriq:

“Kelajakdagi mening shahrim” mavzusida rasm chizing.



1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(4-hafta)



2-keys. “Kitob — kelajak kaliti”



Vaziyat:

Kamron har kuni darsdan so‘ng ertaklar va kitoblar o‘qiydi. Do‘sti unga: “Nega ko‘p kitob o‘qiysan?” deganda, Kamron: “Ko‘p o‘qisam, kelajakda bilimi kuchli inson bo‘lib Vatanimga xizmat qilaman”, dedi.



Savollar:

1

Kitob o‘qish va yaxshi o‘qish kelajagingizga qanday yordam beradi?

2

Bilimli bolalar kelajakda yurtimiz uchun nimalar qila oladi?

3

Siz haftasiga nechta kitob yoki ertak o‘qiysiz?



Topshiriq:

O‘zingiz eng yoqtirgan kitob nomini yozing va uning muqovasi rasmini chizib bering.

